

Davlat moliyaviy siyosatini yanada takomillashtirish, ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish orqali jamiyatda ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanishni ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva, M.X. (2025) 'Davlat moliyasi barqarorligini taminlashda pul-kredit siyosatining ahamiyati', *Наука и инновация*, 3(19), pp. 125–127.
2. Abdug'afforov, Sh.T. (2023) Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat moliyaviy siyosatining roli. "Iqtisodiy fanlar" jurnali, №2, pp. 45–53.
3. Ahmedova, M.M. (2020) Davlat moliyaviy boshqaruv tizimini raqamlashtirish yo'nalishlari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
4. Baqoyev, S.B. (2024) 'Davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashda pulkredit siyosatining ahamiyati', *Экономика и социум*, 8(123).
5. Ermatova, S.A. (2022) 'Moliya tizimi va uning ahamiyati', *ORIENSS*, 4.
6. Habibjonov, U. (2024) O'zbekistonda moliyaviy siyosat: o'tmishi, buguni va kelajagi. *Nordic_Press*, 3(0003).
7. Inomjon, J. & Abramotov, E.T. (2025) 'Davlat moliyaviy nazoratini samarali tashkil etishda g'aznachilikning roli va huquqiy bazasi', *Science and Education*, 8.
8. Kamolidinovich, S.S. (2025a) 'Davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslari', *TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR*, 2(1), pp. 892–897.

SUN'IY INTELEKT VA KRAUDFANDING PLATFORMALAR ORQALI TADBIRKORLIKNI MOLIALASHTIRISH HAMDA BANDLIKNI TA'MINLASH

Hamdamov Shavkat

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Moliya va moliyaviy texnologiyalar"
kafedrası professori, PhD

Batirov Farxad

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Tadqiqotda sun'iy intellekt va kraudfanding platformalar orqali tadbirkorlik faoliyatini molialashtirish hamda aholi bandligini ta'minlash masalalari o'rganiladi. Sun'iy intellektni iqtisodiyotning barcha sohalarida biznes jarayonlarini modernizatsiya qilish, yangi zamonaviy ish o'rinlari shakllari hisobiga bandlikni ta'minlash, kraudfanding platformalar orqali molialashtirishni tashkil qilish hamda tadbirkorlik loyihalarni amalga oshirishga yordam beradi. Mualliflar sun'iy intellektning bir qator iqtisodiy muammolarni, jumladan kraudfanding platformalar orqali pul mablag'larini jalb qilishda yuqori ijobiy salohiyatini aniqladilar. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlikni molialashtirish jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish kapitalga bo'lgan talabni qondirish imkoniyatini oshiradi va natijada aholi bandligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar poydo bo'ladi, iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini jadallashtiradi, tadbirkorlik rivojlanishi hamda boshqa jihatlar kuzatilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt (SI), kraudfanding, tadbirkorlik, molialashtirish, bandlik.


Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sohasida erishilgan natijalar hamda 2026-yilga mo'ljallangan ustuvor vazifalarga bag'ishlangan taqdimot bilan tanishdi. Taqdimotda SI texnologiyalari uchun infratuzilma yaratish ishlarining borishi haqida axborot berildi. Xorijiy ekspertlarning tahlillariga ko'ra, 2024-2025-yillarda mamlakatimizdagi startap va venchur ekotizimining umumiy qiymati 3,9 milliard dollarga yetdi. O'zbekiston dunyodagi ikkinchi eng tez o'sayotgan va Markaziy Osiyodagi eng tez rivojlanayotgan startap ekotizimi deb e'tirof etilmoqda²¹⁷.

O'zbekistonda SIDan foydalanishni tartibga soluvchi qonun kuchga kirdi. Qonun axborot resurslarini yaratish va axborot tizimlarini ishlatishda SIDan foydalanishning umumiy qoidalarini belgilaydi hamda "SI" tushunchasi bilan birga ushbu sohadagi davlat siyosatining yo'nalishlarini belgilaydi: "Sun'iy intellekt (SI) — insonning bilim va ko'nikmalariga taqlid qilish, shu jumladan mustaqil ravishda o'rganish va yechimlarni izlash hamda aniq vazifalarni bajarishda inson aqliy faoliyati natijalari bilan taqqoslanadigan natijalarni olish imkonini beradigan texnologik yechimlar majmui"²¹⁸.

Aholining bandligini ta'minlash maqsadida SI orqali rivojlanayotgan davlatlarda amalga oshirilgan muvaffaqiyatli xorijiy tajribalardan biri Janubiy Afrika Respublikasida amalga oshirilgan. "Harambee" loyihasi yoshlar bandligini ta'minlashga ko'maklashishga yo'naltirilgan bo'lib, ushbu dastur SI yordamida kasbiy-malakaviy moslikni aniqlab, ish izlovchilar bazasini shakllantiradi va ularga turli me'yorlarga asosan tegishli mos bo'sh ish o'rnini taklif qilgan, xususiy sektorda yoshlar tadbirkorligini yo'lga qo'ygan²¹⁹.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal taraqqiy etib borayotgan sharoitda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiyot, sanoat, ijtimoiy himoya, ta'lim, tibbiyot, bandlik, qishloq xo'jaligi, mudofaa, xavfsizlik, turizm va boshqa sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalari va SI imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda.

STATISTA prognozlariga ko'ra, 2030-yilga kelib global SI bozori 20 baravar o'sib, deyarli 2 trillion AQSh dollarga yetadi (1-rasm).



1-rasm. Global SI bozorining hajmi: 2021-2030 prognoz²²⁰

²¹⁷ Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 20.01.2026 raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sohasida erishilgan natijalar hamda 2026y. mo'ljallangan ustuvor vazifalar taqdimoti bilan tanishdi. <https://president.uz/oz/lists/view/8867>

²¹⁸ O'zbekiston Respublikasining 21.01.2026y.dagi "Sun'iy intellektni qo'llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1115-sonli qonuni.

²¹⁹ Hakimov F. (2021). "Sun'iy intellekt – to'rtinchi sanoat inqilobining asosi". <https://strategy.uz>

²²⁰ Под общей редакцией Хотинской Г.И. (2024). "Финансовые технологии FinTech". М.: ООО "Издательство "КноРус", 2024, 279с. <https://book.ru>

SI tarmoqlariga qiziqish 2022-yildan so'ng keskin oshdi, ayniqsa "ChatGPT" va "Midjourney" ishga tushirilganda qiziqish portlash darajasiga yetdi. Bugungi kunda anaviy algoritmlar yordamida hal qilish qiyin va hatto imkonsiz bo'lgan turli muammolarni hal qilish uchun SI ishlatiladi. Moliya sohasida ulardan barcha asosiy bozor ishtirokchilari - banklar, sug'urta kompaniyalari, mikromoliya tashkilotlari va brokerlar foydalanadi.

Hozirgi kunda SI dan kraudfanding platformalarida ham keng foydalanmoqda. Kraudfanding (inglizcha "crowdfunding" – "jamoat tomonidan moliyalashtirish") - bu yangi loyiha, biznes yoki g'oyani amalga oshirish uchun internet orqali ko'plab odamlardan pul mablag'larini yig'ish usuli (2-rasm). Kraudfandingda SI dan foydalanishning afzalliklari:

- Avtomatlashtirilgan aloqa: 24/7 yordam (tinimsiz foydalanuvchi)



2-rasm. Kraudfanding platformasining ishlash prinsipi.

so'rovlarini qayta ishlash, yangiliklar taqdim etish va mos qo'llab-quvvatlash darajasini tanlashda yordam berish);

- Muvaffaqiyatni bashorat qilish: Taxminlar o'rniga raqamlar (o'nlab faktorlarni hisobga olgan holda tadbirkor qanchalik muvaffaqiyatga erishishini oldindan baholay oladi);

- Narxlash taktikasi: Takliflarni moslashtirish (SI foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qiladi va mualliflarga optimal yechim darajalarini taklif qiladi).

Kraudfandingda AI dan foydalanishning kamchiliklari:

- Texnik nosozliklar xavfi;
- Manipulyatsiya qilish imkoniyati;
- Inson o'rnini bosa olmaydi (jonsiz mexanizm sifatida qabul qilinishi).

Raqamli texnologiyalar tadbirkorlik uchun moliyaviy xizmatlar va elektron platformalar potensialiga muvofiq kambag'allikni qishqartirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, ish qidirish va bandlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi²²¹.

²²¹ Abdurakhmanova G., Khudoykulov S., Kholiyorova Sh., Kurbonov S., Okmullaev R., Rakhmatullaeva Sh., Fayzieva

SI murakkab tahlillar va katta ma'lumotlar bilan ishlovchi dasturlarni o'z ichiga olib, mantiqli izchil mulohaza qilish hamda tavsiya berish qobiliyatiga ega "aqlli" texnologiya hisoblanadi. Kraudfanding platforma jarayonlarni avtomatlashtirish va tadbirkorning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini yaxshilash maqsadida SI dan tobora ko'proq foydalanilmoqda. SI qo'llash orqali tadbirkorlar kraudfanding platformalarida kontentga emas, balki mahsulotga e'tibor qaratish orqali vaqtni tejaydi va yuqoriroq samaraga erishadilar. SI ko'plab vazifalarni bajarsa ham, inson o'rnini bosa olmaydi. Tadbirkor SI dan foydalanishda so'nggi qarorni o'zi qabul qilishi maqsadga muvofiq.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2026-yil 21-yanvardagi "Sun'iy intellektni qo'llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1115-sonli Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-8008401>.

2. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2026-yilning 20-yanvarida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sohasida erishilgan natijalar hamda 2026-yilga mo'ljallangan ustuvor vazifalarga bag'ishlangan taqdimot bilan tanishdi. <https://president.uz/oz/lists/view/8867>

3. Под общей редакцией Хотинской Г.И. (2024). "Финансовые технологии FinTech". М.: ООО "Издательство "КноРус", 2024, 279с. <https://book.ru>

4. Abdurakhmanova G., Khudoykulov S., Kholiyorova Sh., Kurbonov S., Okmullaev R., Rakhmatullaeva Sh., Fayzieva M. (2023). "The potential impact of digital technologies on poverty reduction in the case of Uzbekistan". <https://doi.org/10.1145/3644713.3644825>

5. Hakimov F. (2021). "Sun'iy intellekt – to'rtinchi sanoat inqilobining asosi". "Taraqqiyot strategiyasi" markazi. <https://strategy.uz>

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI RAQAMLI PLATFORMALAR: MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR VA KRAUDFANDING TIZIMLARIDA QO'LLANISH IMKONIYATLARI HAMDA XAVFLARNI BAHOLASH

R.E.Yaxshiboyev

*"Raqamli iqtisodiyot" kafedrasida mustaqil izlanuvchisi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

Annotatsiya. Raqamli iqtisodiyotda yangi texnologiyalarning global miqyosda tarqalishi moliyaviy texnologiyalar ekotizimida yangi boshqaruv mexanizmlari va innovatsion platforma-maggregatsiyalangan yechimlarga olib keldi. Xususan, moliya va kraudfanding platformalarida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash moliyaviy xizmatlar darajasini oshirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi, shu bilan birga investitsiya jarayonlari va xavflarni baholash jarayonlarini avtomatlashtiradi.

Tadqiqot sun'iy intellekt algoritmlari ma'lumotlarni qayta ishlashda, investitsiya loyihasini tanlashda, kreditga layoqatlilikni baholashda va platforma iqtisodiyoti doirasida kraudfanding tizimlari uchun qaror qabul qilish mexanizmini takomillashtirishda qanday qo'llanilishiga qaratilgan.

M. (2023). "The potential impact of digital technologies on poverty reduction in the case of Uzbekistan". <https://doi.org/10.1145/3644713.3644825>